

О‘QUVCHILARNI JONLI VA JONSIZ TABIAT BILAN TANISHTIRISH METODIKASI

Shahrisabz Davlat Pedagogika

Instituti Tabiiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi:

Alimardonova Mo‘tabar Xolmo‘minovna

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3- kurs 3- 22- guruh talabasi:

Berdiyeva Lola Shokir qizi

Annotatsiya : Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirish usullari , metodlari haqida ma'lumotlar berilgan . Shuningdek , o‘quvchilarda ekologik madaniyat va tabiatga mehr - muhabbatni shakllantirishda o‘quv jarayonining ahamiyati tahlil qilinadi .

Kalit so‘zlar : Jonli tabiat, jonsiz tabiat, boshlang‘ich ta'lim, metodika, didaktik o‘yinlar, ekologik tarbiya .

Аннотация: В статье представлена информация о методах и приемах знакомства учащихся начальной школы с живой и неживой природой. Также анализируется значение образовательного процесса в формировании у учащихся экологической культуры и любви к природе.

Ключевые слова: Живая природа, неживая природа, начальное образование, методика, дидактические игры, экологическое образование.

Abstract: This article provides information on methods and techniques for introducing primary school students to animate and inanimate nature. It also analyzes

the importance of the educational process in forming ecological culture and love for nature in students.

Keywords: Living nature, inanimate nature, primary education, methodology, didactic games, ecological education

Barchamizga ma'lumki bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri - bu tabiatni asrash va uning ne'matlaridan oqilona foydalanish chora - tadbirlarini ishlab chiqishdir . Bu boradagi bizning ya'ni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining harakatlari muhimdir . Boshlang'ich ta'lim- bu o'quvchilarga tabiat haqidagi boshlang'ich bilimlarni beruvchi , ularning borliq haqidagi dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim bosqichdir. Bu davrda o'quvchilarni jonli (o'simliklar, hayvonlar, odam) va jonsiz (havo, suv, tuproq, quyosh, toshlar) tabiat hodisalari bilan tanishtirish orqali ularda atrof-muhitga nisbatan ongli munosabat va kuzatuvchanlik ko'nikmalari shakllanadi. Mazkur maqolada o'quvchilarga jonli va jonsiz tabiat tushunchalarini o'rgatish jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan metodlar, ularning samaradorligi va vazifasi tahlil qilingan .

Tabiat ikki katta guruhga bo'linadi :

1. Jonli tabiat .
2. Jonsiz tabiat .

Jonli tabiat - yashaydi, o'sadi, oziqlanadi va ko'payadi. Bunga o'simliklar, hayvonlar, odamlar va mikroorganizmlar kiradi.

Jonsiz tabiat - harakatlanmaydi, o'smaydi va oziqlanmaydi. Bunga quyosh, suv, havo, tuproq, tosh va tog'lar kiradi.

Jonli tabiat jonsiz tabiat bilan bog'liq. Masalan, o'simliklar tuproq va suv yordamida o'sadi, hayvonlar esa havo va oziq-ovqatga muhtoj. Shuning uchun jonli va jonsiz tabiat birgalikda mavjud bo'lishi kerak. O'quvchilarga jonli va jonsiz tabiat haqidagi dastlabki bilimlar 1- sinfdanoq berib boriladi. O'quvchilarga bu mavzuni

tushuntirish jarayonida zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan , ko'rgazmali vositalardan , tarqatma materiallar hamda metodlardan foydalanish ancha samarali hisoblanadi. Masalan :

Ko'rgazmalilikka asoslangan vositalar : rasmlar , tabiatga oid videolar , tosh , qum, o'simlik namunalardan foydalanish orqali darslar yanada jonli va qiziqarli bo'ladi . Ko'rsatmalilik bolaning ko'rish orqali eslab qolish qobiliyatini rivojlantiradi va fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi .

Didaktik o'yinlar :

1. " Kim chaqqon " didaktik o'yini . O'quvchilarga jonli va jonsiz tabiatga oid rasmlar aralashtirilgan holda beriladi . O'quvchilar chaqqonlik bilan ularni bir - biridan ajratib chiqishlari kerak bo'ladi. Qaysi o'quvchi ko'proq ajrata olsa o'sha o'quvchi g'olib hisoblanadi.

2. " Kim qayerda yashaydi " . O'quvchilarga jonli tabiatga kiruvchi hayvonlar va o'simliklar rasmi ko'rsatiladi. O'quvchilar ularning qayerda, qaysi muhitda yashashini topishlari kerak bo'ladi .

3. " Ortiqchasini top " metodi . O'quvchilarga 4 ta jonli va jonsiz tabiatga oid misollar aytiladi . O'quvchilar ular orasidan ortiqchasini aniqlashadi va nima uchun ortiqchaligini tushuntirib beradilar.

4. "Kimni tasvirlayapman?" O'quvchilarning tafakkur va tasavvurini rivojlantirishga yordam beradi . O'qituvchi jonli yoki jonsiz tabiatga oid ob'ektni tasvirlaydi (masalan: "Men yashilman, o'saman, bargim bor"), o'quvchilar esa bu nima ekanini topishadi (javob: daraxt). Ushbu metodni hayvonlarning harakatini ko'rsatib berish orqali o'tirganlar uning qaysi hayvon ekanligini topishini so'rash ko'rinishida o'tkazish ham mumkin . Bu didaktik o'yinlar o'quvchilarning olgan bilimlarini yanada mustahkamlaydi , ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi , tabiatga mehr tuyg'usini shakllantiradi. Ushbu didaktik o'yinlar va ko'rgazmalardan

tashqari o'quvchilar bilimini mustahkamlashda turli xil topshiriqlar va savol-javoblardan foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda , O'quvchilarni jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirish ularning dunyoqarashi va hayotiy qarashlarini shakllantiradi. Dars jarayonida metodlarning to'g'ri tanlanishi, ularning o'zaro uyg'unligi va bolalar yoshiga mosligi yuqori natijaga olib keladi. Bunday yondashuv orqali o'quvchilarni mustaqil, tabiatga mehrlil, kuzatuvchan va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash mumkin. Shuningdek, o'quvchilarning jonli va jonsiz tabiat haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish orqali ular tabiatdagi mavjud uyg'unlikni, organizmlar va ularning yashash muhiti o'rtasidagi bog'liqlikni tushunib yetadilar. Bu esa ularni tabiatni asrash, jonli mavjudotlarga g'amxo'rlik qilish, jonsiz tabiat unsurlariga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. I. V.Grosheva, G.E. Djanpeisova, U.T.Mikailova, MA.Kenjabayeva, N.A.Miftayeva. O'yin orqali ta'lim olish. T.2020
2. Nasriddinova G. Boshlang'ich ta'limda integrallashgan darslar. – Toshkent: “Ilm ziyo”, 2020.
3. Norqobilova M.X. Boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. – T.: Fan, 2019.
4. Amonov S., Jo'rayev U. O'simliklar va hayvonot dunyosi bilan tanishtirish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2017.
5. Qurbonova S.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish yo'llari. – T.: Noshir, 2022.
6. M.T. To'xtayeva, D. Nazarova va boshqalar. Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi– Toshkent: Noshir, 2021